



Alimova Nargiza Rustam qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
nargisalimova0104@gmail.com

VIZUAL SAN'ATDA AYOL OBRAZI IFODALANISHIDA ESTETIKA QONUNIYATLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada vizual san'at turlarida ayol qiyofasining aks ettirilishda estetika qonuniyatlarining ahamiyati yoritib berilgan. Muallif vizual san'at asaridagi ayol obrazi badiiy shakl va mazmunning bir-biriga mosligi, garmoniya, proporsiya, simmetriya, qarama-qarshiliklar birligi qonuniyatlariga bo'ysunishiga e'tibor qaratgan.

Tayanch tushunchalar: ayol, ayol obrazi, vizual san'at, vizual tasvir, estetika qonuniyatlari, shakl va mazmun, garmoniya, proporsiya, simmetriya, tekstura, kategoriyalar.

Annotation. This article highlights the importance of aesthetic laws in the representation of the female image in the visual arts. The author paid attention to the fact that the image of a woman in a work of visual art obeys the rules of compatibility of artistic form and content, harmony, proportion, symmetry, and unity of opposites.

Keywords: woman, female image, visual art, visual image, laws of aesthetics, form and content, harmony, proportion, symmetry, texture, categories.

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность законов эстетики в репрезентации женского образа в изобразительном искусстве. Автор обратила внимание на то, что образ женщины в произведении изобразительного искусства подчиняется правилам сочетаемости художественной формы и содержания, гармонии, пропорции, симметрии, единства противоположностей.

Ключевые слова: женщина, женский образ, изобразительное искусство, зрительный образ, законы эстетики, форма и содержание, гармония, пропорция, симметрия, фактура, категории.

Kirish. Ayol obrazi san'at tarixida eng ko'p murojaat qilingan mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ayolning tashqi qiyofasi orqali uning ichki dunyosi, qalbi, hissiyotlari va kechinmalarini aks ettirish vazifasi vizual san'at turlarida asosiy ijodiy mavzular sirasiga kiradi. Umuman olib qaraganda, mavzu sifatida yagona – ayol obrazining tanlanishi vizual san'atning barcha turlarida ham bir xil darajadagi ijod namunasining yaratilishiga olib kelmaydi. Mazkur jarayonga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi: san'at turining o'ziga xos xususiyatlari, ijodkorning mahorati, mavzuni his qilishi va unga qaysi rakursdan

qarashi, san'at asarini yaratishda qanday ashyolar, materiallardan foydalangani, estetik kategoriyalar va estetik qonuniyatlarning asarda aks ettirilishi va hokazo.

Har bir vizual san'at turi mavzuga o'z nuqtayi nazaridan yondashadi hamda ma'lum bir vizual san'at elementlaridan foydalanadi. Hattoki vizual san'at turlarida ayol obrazining aks ettirilishi – san'atning paydo bo'lishi bilan aloqador ekanligi haqida qarashlar ham mavjud¹. Shuningdek, har bir

¹ Алимova Н.Р. Қадимги давр визуал санъат турларида аёл қиёфасининг акс эттирилиши//Academic research in

san'at asarida ma'lum darajada estetik qonuniyatlar, ideallar, kategoriyalar o'z aksini topadi. Ayol obrazining san'at asarlarida, xususan, vizual san'at turlarida aks etishida ham estetika qonuniyatlarining o'zaro dialektik munosabati namoyon bo'ladi, obrazning tashqi ko'rinishi va ichki dunyosi aynan shu estetika qonuniyatlari natijasida anglianib boriladi.

Asosiy qism. Har bir san'at asari – individual badiiy-estetik tafakkur natijasi, alohida badiiy ijodkorning ijodiy faoliyati mahsuli. Badiiy asarni yaratishda har qanday ijodkor u yoki bu darajada estetik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ayol obrazining vizual tasvirini yaratishda ham ijodkordan nozik estetik did, estetik kategoriyalar dialektik munosabatini his qilish talab etiladi. Har qanday vizual san'at asaridagi ayol obrazi, uning tashqi ko'rinishi *badiiy shakl va mazmunning bir-biriga mosligi, garmoniya, proporsiya, simmetriya, ritm, badiiy yaxlitlik, qarama-qarshiliklar birligi, sifat va miqdor qonuniyatlariga bo'ysunadi*, vizual tasvir elementlarida mazkur qonuniyatlar o'z ifodasini topadi.

Dastavval, **shakl va mazmun uyg'unligi qonunining** ayol qiyofasi vizual san'atda ifodalanishidagi ahamiyatiga e'tibor qaratsak. Shakl va mazmun nafaqat estetikaning, balki falsafaning eng keng qamrovli kategoriyalari hisoblanib, ularning o'zaro aloqadorligi tufayli badiiy asarning yaxlitlik qonuniyati yuzaga keladi. Shakl va mazmunning o'zaro muvofiqligi rivojlanish jarayonini yuzaga keltiradi. Shu tufayli ham mazmunning o'zgarishi darhol unga mos keladigan shaklning o'zgarishiga olib keladi, natijada har ikki komponent bir-biriga mos bo'lib qoladi. Mazmun bilan shakl ijod jarayonida aynan bir vaqtda vujudga keladi, ular bir-birini taqozo etadi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-biriga o'tadi².

Vizual san'at turlari, xususan, tasviriy san'at, haykaltaroshlikda shakl – san'at obyektining tashqi ko'rinishi, chizilish yoki yasalishi, hajmning konstruktiv tuzilishini ifodalasa, mazmun – san'at asarining g'oyasini, mohiyatini o'zida aks ettiradi. Bir so'z bilan aytganda, mazmun ijodkor nimani aytmoqchi ekanligini tasvirlasa, shakl uni qanday

qilib aytmoqchi ekanligini anglatadi. Masalan, rassom ayolning tashqi go'zalligini, shu bilan birga, ibo-hayoli ekanligini (mazmun) o'z asarida obrazning tabassum bilan yerga qarab turgan holatda tasvirlashi (shakl) orqali ifodalashi mumkin.

Shakl va mazmunning uyg'unligi ayol qiyofasining tasviriy ko'rinishida muhim ahamiyatga ega. Ba'zida ikki kategoriyaning uyg'unligi muammosi ijodkorning badiiy yechimni uzoq vaqt izlashiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, Renessans davrining mashhur ijodkorlaridan biri Leonardo da Vinchi mashhur "Mona Liza" asaridagi Jakondaning labini qanday shaklda chizish bo'yicha qaror qabul qilish uchun 12 yil vaqt sarflagan³. Natijada ijodkor badiiy asarning kichik elementini tasvirlashda badiiy shakl va mazmunning mukammal uyg'unligiga erishgan, bu esa asarning muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan omillardan biriga aylangan. Yoki O'rta asrlarda G'arb tasviriy san'atida yaratilgan ayollar obraziga e'tibor qaratsak. Bu davrda san'atning boshqa turlari kabi tasviriy san'atda ham badiiy mazmun cherkov tomonidan belgilab berilishi, ya'ni diniy-sxolastik mazmun dominant ekanligi asarlardagi shaklga ham ta'sir ko'rsatgan. Mazkur davrda ayollar qiyofasi cherkov g'oyalariga uyg'un ravishda hayotning qiyinchiliklaridan ezilgan, ruhning erkinlikka intilishini istayotgan holatda (mazmun), rangpar, o'rta darajadagi jismoniy imkoniyatlarga ega, ozg'in, lablar va yuzlar qurib, rangsiz qolgan tarzda (shakl) tasvirlangan. Demak, shakl va mazmun uyg'unligi vizual san'at asarlarida ayol qiyofasini aks ettirishda muhim, ajralmas qonuniyatlardan biri hisoblanadi.

Estetikaning yana bir keng qamrovli qonuniyati **garmoniya** hisoblanib, vizual san'at turlarida ayol obrazining aks ettirilishida uning ahamiyati juda ham katta. Garmoniya (yun. harmoniya – aloqa, uyg'unlik) – muayyan tizim elementlari, tarkibiy qismlari rivojlanishining muayyan davrida o'zaro muvofiq, mutanosib, uzviy bog'liqlik va aloqadorlik holatini anglatuvchi tushuncha⁴. Garmoniya vizual san'at asarlari yaratilishida eng ko'p murojaat qilinadigan, vizual obrazning

educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 242-246.

² Кадилова Д.С. Санъат эстетикаси / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Mumtoz so'z. – 2022. – Б. 87.

³ История искусства: Ренессанс: [Иллюстрированная энциклопедия]. – Россия: АСТ. – 2003. – С. 503.

⁴ Эстетика. Асосий тушунчалар изоҳли лугати / Масъул муҳаррир: Б.Хусанов. Нашрга тайёрловчи: Л.Муҳаммаджонова. – Тошкент: Университет, 2019. – Б. 24.

mazmunini tashkil etuvchi, zaruriy shartlaridan biri hisoblanuvchi qonuniyatdir. O'z navbatida, vizual san'at elementlarining uyg'unligi, mutanosibligi asosida vizual san'atda garmoniyaning bir qancha ko'rinishlarini uchratish mumkin. Masalan, rangtasvirdagi turli ranglarning uyg'unligi, hamohangligi hisoblangan ranglar garmoniyasi, nur va soya o'rtasidagi garmoniya, san'at obyektida foydalanilgan shakllar garmoniyasi, hajmdagi garmoniya, tekstura garmoniyasi shular jumlasidan. Umumlashtirgan holatda garmoniyaning vizual san'at turlaridagi quyidagi asosiy uch turini farqlash mumkin:

1. Rang va ton garmoniyasi.
2. Shakllar garmoniyasi.
3. Tekstura garmoniyasi⁵.



1-rasm. "Uistler onasi" surati. Jeyms Uistler. 1871-yil.

Vizual san'atdagi garmoniyaning har biri turi ayolning vizual tasvirini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Rang va ton (ya'ni nur va soya) garmoniyasi monoxromatik, qo'shimcha (komplementar), analog, triadik kabi asosiy rang sxemalari hamda past yoki yuqori darajadagi ton – nur va soya uyg'unligidan foydalanish asosida shakllantiriladi. Masalan, amerikalik rassom Jeyms Uistlarning mashhur "Uistler onasi" (1871) asarida

rang va ton garmoniyasini ko'rishimiz mumkin⁶ (1-rasm). Asarda tasvirlangan ayolning qiyofasi kulrang va qora ranglarining uyg'unligida, yuqori darajadagi tonda mukammal qiyofa, ideal garmoniya taqdim eta olgan. Shakllar garmoniyasida asosiy e'tibor vizual san'at asarida ishlatilgan geometrik shakllarning (masalan, doira, uchburchak, to'rburchak kabi) uyg'unligi, naqsh yoki asarning umumiy manzarasiga mutanosibligiga qaratiladi. Garmoniyaning bunday turiga kubizm va syurrelizmda ko'p murojaat qilinadi. Xususan, mashhur ispan rassomi Pablo Pikassoning "Mandolina tutgan qiz" (1910) asarida⁷ kubizm yo'nalishidagi shakllar garmoniyasini ko'rishimiz mumkin (2-rasm). Asarda ikki va uch o'lchamli geometrik va trigonometrik shakllar vositasi uyg'unlikka erishilgan, asarda obrazning ochilishi, asosan, shakllar vositasida amalga oshirilgan. Tekstura garmoniyasi esa vizual yuzada bir tekis yoki tasodifiy qo'llaniladigan qalin yoki ingichka, qisqa yoki uzun cho'tka zarbalari bilan turli xil teksturalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Tekstura garmoniyasi orqali ayollar obrazining vizual tasvirini yaratilishini fransuz rassomi Jorj-Pyer Syoraning "Grand-Jatt orolida yakshanba tushdan keyin" (1884-1886) asarida uchratishimiz mumkin⁸. Mazkur surat puantilizm yo'nalishida chizilgan bo'lib, umumiy personajdagi ayollarning liboslari, tana tuzilishi tekstura yordamida bo'rttirilib tasvirlangan.

Ayollar qiyofasini vizual san'atda aks ettirishda **proporsiya** qonuniyatining ham alohida ahamiyati mavjud. Proporsiya atamasining o'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "munosabat" yoki "mutanosiblik" tarzida tarjima qilinadi. Mazkur tushuncha tasvirdagi o'lchamlar (bo'yi, eni, qalinligi, och-to'qligi, katta-kichikligi va boshqalar) o'rtasidagi nisbatlarni nazarda tutadi⁹. Inson, xususan, ayol qiyofasini san'at asarida tasvirlashda ijodkor tomonidan proporsiya qonuniyatining to'g'ri qo'llanishi juda ham muhim. Bevosita ayol qiyofasining tasvirida quyidagi elementlarning to'g'ri nisbatda tasvirlanishiga alohida e'tibor qaratish lozim:

⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Whistler%27s_Mother

⁷ <https://www.pablopicaso.net/girl-with-a-mandolin/>

⁸ Seurat, Georges. «A Sunday on La Grande Jatte – 1884». The Art Institute of Chicago. Retrieved 17 May 2021.

⁹ Кадилова Д.С. Санъат эстетикаси / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Mumtoz so'z. – 2022. – Б. 66.

⁵ Ou L. C., Luo M. R. A colour harmony model for two-colour combinations // Color Research and Application. – 2006. – T. 31. – №. 3. – C. 191-204.



2-rasm. “Mandolina tutgan qiz” surati. Pablo Pikasso. 1910-yil

1. Tana a’zolari proporsiyasi. Bunda qo’l, oyoq, bel, bo’ksa, bosh va boshqa tana a’zolari va qismlarining o’zaro hamda butun tanaga nisbatan mutanosibligi.

2. Yuz shakli proporsiyasi.

3. Personaj hajmining umumiy surat yoki atrof-muhitdagi boshqa elementlar bilan mutanosibligi.

Proporsiyaning mavjudligi go’zallikning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Proporsiyaning buzilishi oqibatida esa insonning tabiiy go’zalligi suratda yoki haykalda aks etmasligi, nafosatning badiiy idrok qilinmasligiga olib kelishi mumkin. Shu tufayli ham proporsiya muammosi azal-azaldan inson tanasining ideal nisbatini aniqlashtirish zaruriyatini yuzaga keltirgan. Ideal tana proporsiyasi haqidagi qarashlar antik davr san’atida shakllana boshlagan hamda mazkur qarashlar asosida Yevropada Uyg’onish davrida mukammal mutanosiblikka ega ideal inson qiyofasi shakllantirilgan. Xususan, Leonardo da Vinchining “Vitruvian odam” (lotincha “Homo vitruvianus”) surati bugungi kunga qadar ideal inson tanasi proporsiyasi aks etgan asar sifatida e’tirof etiladi. “Vitruvian odam” suratining yuqori va pastki qismida da Vinchi tomonidan tana proporsiyasi qonunining asosiy qoidalari ham

taqdim etilgan¹⁰. Lekin mazkur etalon erkak tanasi uchun ideal proporsiya hisoblanib, ayol tanasining fiziologik o’ziga xosligi tufayli ideal proporsional mutanosiblikdagi ayol qiyofasi haligacha yaratilgan emas. O’z navbatida, ba’zi haykaltaroshlar, rassomlar, arxitektorlar tomonidan ideal ayol qiyofasi – “vitruvian ayol” tasvirini yaratishga harakat qilingan¹¹. Ideal proporsiyaga ega bo’lgan ayol tanasi mavjud emas, shu tufayli ham hech qaysi “vitruvian ayol” tasvirini mukammal deb bo’lmaydi.

Ayol qiyofasining har qanday tasviri u yoki bu darajada proporsiya qonuniga bo’ysunadi. Ayniqsa, Uyg’onish davri ijodkorlari bunga alohida e’tibor qaratgan. Har bir ijodkor o’z asarida ayol qiyofasini jonlantirar ekan, antik davr san’atining go’zallik haqidagi nazariy tamoyillari va namunalariga asoslanishga harakat qilgan. Masalan, italyan rassomi Domeniko Girlandayoning “Djovanna Tornabuoni portreti”¹² (1488-yil) asarida ayol qiyofasining proporsiyasiga katta urg’u berilgan, yuz va tana a’zolari proporsiyasi ideallashtirilgan.

Proporsiya bilan bog’liq bo’lgan yana bir estetik qonuniyat mavjud bo’lib, u **simmetriya** qonuniyati hisoblanadi. Proporsiya tana a’zolarining o’zaro hajm jihatdan mutanosibligi hisoblansa, simmetriya esa tanani uzunligi bo’yicha teng ikkiga bo’luvchi tik (vertikal) chiziqning ikki tomonidagi tasvir, obyektlar, tana a’zolarining o’lcham jihatdan bir-biriga tengligini nazarda tutadi. Shuningdek, surat yoki haykalning o’ng va chap yoki tepa va past qismlaridagi o’zaro tenglik yoki o’xshashlik ham simmetriyani bildiradi¹³.

Simmetriya antik san’at davridan buyon vizual san’at asarlarini yaratishda asosiy qonuniyatlardan biri bo’lib kelmoqda. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, qadimgi yunonlarda simmetriya g’oyasi bugungi kunda mavjud tor tushunchadan ko’ra ancha kengroq bo’lgan. Qadimgi yunonlar simmetriyani faqatgina simmetriya o’qi ikki tomonining mukammal bir xilligida emas, balki qism va butun o’rtasidagi munosabatlarning uyg’unligida ham deb

¹⁰ Lester T. Da Vinci’s ghost: Genius, obsession, and how Leonardo created the world in his own image. – Simon and Schuster, 2012.

¹¹ https://nl.wikipedia.org/wiki/Rob_ten_Berge#/media/Bestand:Vitruvian_female.jpg

¹² https://en.wikipedia.org/wiki/Portrait_of_Giovanna_Tornabuoni

¹³ Кадирова Д.С. Санъат эстетикаси / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Mumtoz so’z, 2022. – Б. 66.

tushunishgan¹⁴. Keyinchalik esa mazkur tushuncha davrlar o'tib konkretlashib, bugungi kundagi ma'noni kasb etgan.

Ayol qiyofasining vizual tasvirini yaratishda simmetriya alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, inson tanasi, ayniqsa, uning yuz tuzilishi tabiiy simmetriyaning yorqin misoli hisoblanadi. Ijodkor o'z asarida ayol qiyofasini tasvirlar ekan, tana va yuzning simmetrik joylashuviga alohida e'tibor qaratadi, tabiiy simmetriyani yanada mukammallashtirishga yoki qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlashga intiladi. Simmetriya inson yuzini tasvirida go'zallikning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Aslida, insonning yuz tuzilishi ikki tomonlama simmetriyaning tipik namunasi hisoblanadi, simmetriya oshgani sayin inson go'zalligi, jozibadorligi ortib boradi¹⁵. Shu sababli ham vizual san'atda ayol qiyofasini yaratishda simmetriya qonuniyatiga amal qilish, yuz va tananing tabiiy simmetriyasini yaratish asarning estetik jihatdan mukammal bo'lishiga xizmat qiladi.

Keyingi qonuniyat – **ritm** bo'lib, u kompozitsiya, simmetriya va proporsiya qonuniyatlariga bog'liq. Odatda mazkur tushuncha davriylikni, ma'lum bir vaqt yoki masofa oralig'ida sodir bo'ladigan doimiy takrorni ifodalashga xizmat qiladi. Tasviriy san'at turlarida o'lchamlilik qonunlari kompozitsiya qismlari va yaxlitlik o'rtasida sanoqli nisbatlarni o'rnatadi. Ritm kompozitsiya elementlarining va ular orasidagi masofa (interval)larning takrorlanish qonuniyatini anglatadi. Asar ritmi bu nafaqat o'xshash, balki bir-biriga o'xshamagan, uzoq joylashgan predmetlar ketma-ketligidir. Bundan anglashimiz mumkinki, vizual san'atda ritm faqatgina ayol qiyofasining o'zini emas, balki asarda tasvirlangan yaxlit kompozitsiyadagi barcha elementlarning takrorlanish hodisasiga daxldor hisoblanadi.

Yana bir falsafiy, dialektik, estetik qonuniyat **qarama-qarshilik qonuniyati** ham vizual san'atda tasvirlanadigan obyektlarning mukammal tasvirini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Qarama-qarshilik qonuniyati asosida ziddiyat yotadi. Ayolning vizual

qiyofasini “jonlantirish”da bunday ziddiyatlarni ikki xil shaklda ko'rishimiz mumkin:

1. Asarning g'oyaviy mazmuniga taalluqli bo'lgan ziddiyatlar.

2. Asarning shakli bilan bog'liq ziddiyatlar.

G'oyaviy mazmundagi ziddiyatlar badiiy asarning mazmuniga taalluqli bo'lib, obrazning ichki qarama-qarshiligi, obrazning jamiyat yoki borliq qoidalari bilan ziddiyatlarini ifodalashi mumkin. Shakl bilan bog'liq ziddiyatlar esa vizual san'atning elementlari bilan bog'liq. Tasviriy san'at turlarida bunday ziddiyatlar kontrast (fransuzcha “keskin ziddiyat”) atamasi bilan ifodalanadi. Tasviriy san'atda och va to'q, oq va qora, iliq va sovuq ranglar, ijobiy va salbiy obrazlarning yonma-yon turishi kontrastlilikni keltirib chiqaradi. Rangtasvir suratlarida ishlatiladigan ranglarning bir-birlariga qarama-qarshi turlari mavjud¹⁶. Ikki qarama-qarshi rangning yonma-yon qo'yilishi esa umumiy qiyofada ziddiyatning aks etishiga olib keladi.

Vizual san'at asarlarida kontrastning mavjudligi asarning tomoshabin tuyg'ulari, ichki dunyosiga ta'sir qilish imkoniyatini oshiradi. Bunga misol sifatida mashhur fransuz impressionisti Klod Monening “Bog'dagi ayollar” (1866) asarini ko'rsatishimiz mumkin. Mazkur suratda och va to'q, oq va qora ranglar sababli vujudga kelgan kontrast asarning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Yoki zamonaviy yapon rassomi Yosimoto Naraning “Yarim tungi sovg'a” (2017), “Kosmik qiz” (2008) kabi suratlarida ranglar kontrastidan unumli foydalangani namoyon bo'ladi.

Kontrastning mavjudligi san'at asariga jo'shqinlik beradi, hayot bag'ishlaydi. Uning yo'qligi esa san'at asarining kognitiv jihatlariga ta'sir qiladi, asarning va unda tasvirlangan ayol qiyofasining fenomenligi yo'qoladi. Boshqa tomondan qaraganda, kontrastning borligi san'at asarining go'zallashuviga xizmat qiladi.

Mazkur falsafiy-estetik qonuniyatlar vizual san'atda ayollar tasvirini ifodalashda, asarning badiiy ta'sirchanligini oshirishda, tomoshabinning estetik tuyg'ularini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ikkinchi tomondan esa estetik qonuniyatlar estetik kategoriyalarning badiiy asarda o'z ifodasini topishida ham muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, vizual san'atning barcha turlarida yaratilgan ayol obrazida estetik kategoriyalarga murojaat qilinadi.

¹⁴ Изворска Д.И., Славова С.К. Фрактальная симметрия в изобразительном искусстве //Актуальные проблемы современного образования. – 2018. – №. 1. – С. 270-280.

¹⁵ Bertamini M., Rampone G., Makin A.D., & Jessop A. Symmetry preference in shapes, faces, flowers and landscapes // PeerJ. – 2019. – T. 7.

¹⁶ Кадилова Д.С. Аналитик эстетикаси / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2022. – Б. 102-103.

Xulosa. Ayol qiyofasining vizual san'at turlarida aks etishida estetika qonuniyatlarining ahamiyati beqiyos. Ayollarning vizual qiyofasini yaratishda mazkur san'at asarlarida har bir ijodkor o'zi yaratgan ayol tasviri ideal bo'lishini, uning ijod namunasi go'zallik, ulug'vorlik kategoriyalari uchun etalon bo'lishini istagan. Buning uchun esa ijodkor estetikaning shakl va mazmunning bir-biriga mosligi, garmoniya, proporsiya, simmetriya, ritm, badiiy yaxlitlik, qarama-qarshiliklar birligi

kabi qonuniyatlarini yaxshi anglab yetishi hamda ayolning vizual tasvirini yaratishda ushbu qonuniyatlarga amal qilishi talab etilgan. O'z navbatida, ijodkor ayol tasvirini yaratishda ba'zida estetika qonuniyatlarini atay buzishi ham mumkin. Bunda ijodkor, albatta, janr (masalan, karikatura) xususiyatidan kelib chiqishi talab qilinadi. Estetik qonuniyatlarga amal qilish ijodkorning mazkur asarini badiiy-estetik jihatdan etalon darajasiga chiqishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кади́рова Д.С. Санъат эстетикаси / Ўқув қўлланма. — Тошкент: Mumtoz so'z, 2022.
2. История искусства: Ренессанс: [Иллюстрированная энциклопедия]. — Россия: АСТ. — 2003.
3. Алимova Н.Р. Қадимги давр визуал санъат турларида аёл қиёфасининг акс эттирилиши // Academic research in educational sciences. 2022. — Т. 3. — №. NUU Conference 2.
4. Эстетика. Асосий тушунчалар изоҳли луғати / Масъул муҳаррир: Б.Хусанов. Нашрга тайёрловчи: Л.Мухаммаджонова. — Тошкент: Университет, 2019.
5. Ou L. C., Luo M. R. A colour harmony model for two-colour combinations // Color Research and Application. — 2006. — Т. 31. — №. 3. — С. 191-204.
6. Seurat, Georges. «A Sunday on La Grande Jatte — 1884». The Art Institute of Chicago. Retrieved 17 May 2021.
7. Lester T. Da Vinci's ghost: Genius, obsession, and how Leonardo created the world in his own image. — Simon and Schuster, 2012.
8. https://nl.wikipedia.org/wiki/Rob_ten_Berge#/media/Bestand:Vitruvian_female.jpg
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Portrait_of_Giovanna_Tornabuoni
10. Изворска Д.И., Славова С.К. Фрактальная симметрия в изобразительном искусстве // Актуальные проблемы современного образования. — 2018. — №. 1.
11. Bertamini M., Rampone G., Makin A.D., & Jessop A. Symmetry preference in shapes, faces, flowers and landscapes // PeerJ. — 2019. — Т. 7.
12. Кади́рова Д.С. Аналитик эстетикаси / Ўқув қўлланма. — Тошкент: Mumtoz so'z. — 2022.